

**INTERNATIONAL CONFERENCE PEDAGOGICAL
REFORMS AND THEIR SOLUTIONS**
VOLUME 2, ISSUE 1, 2024

**ZILZILA BILAN BOG'LIQ FAVQULODDA VAZIYATLARDA TO'G'RI HARAKAT
QILISH**

Sharapov Otobek Rustam o'g'li
Favqulodda vaziyatlar vazirligi Fuqaro muhofazasi instituti

Ma'lumki tabiiy ofatlarning turi ko'p. Ular zilzila, yong'in, sel, dovul, sunami, vulqon otilishi, ko'chkilar, turli kasalliklarning keng tarqalishi va boshqalardan iborat bo'lib, ushbu ofatlar insoniyat va tabiat uchun behisob zarar keltiradi. Tabiy ofatlar ichida eng ko'p zarar keltiruvchi zilzila hisoblanadi. Zilzila natijasida ko'plab odamlar qurbon bo'lishi, imorat va turli qurilmalarning vayron bo'lishi, sunamilar, ko'chkilar, yirik yong'inlar va turli avariyalarga olib kelishi mumkin. Zilzila natijasida yer sharining turli mintaqalarda joylashgan mamlakatlarda yiliga bir necha o'n mingdan yuz minglarga odamlar qurbon bo'lishi davom etmoqda.

Zilzila vaqtida har qanday odam sarosimiga tushib, o'zini-o'zi boshqara olmay qolishi turgan gap. Ko'pchiligidan bunday hollarda nima qilishni, zilzila vaqtida qanday qilib jon saqlashimiz mumkinligini bilmaymiz ham.

Mutaxassislarning tavsiyalariga qulog tut sangiz, tabiiy ofatlar vaqtida hayotingiz xavfsizligini ta'minlagan bo'lasiz. Eng muhimi har qanday vaziyatda ham inson o'zini ongli ravishda boshqara olishi, og'ir va vazmin bo'lishi lozim. Quyidagi eslatmalar esa sizga as qotishi aniq [1,2].

Zilzila sodir bo'lganda aholini muhofaza qilish chora-tadbirlari:

1. Yer silkinishi xavfi bo'lganda binodan chiqish yo'lini oldindan belgilab qo'yish kerak. Yodingizda bo'lsin - yer sakinishi yarim tunda ham yuz berishi mumkin. Chiqish yo'llari, eshiklar odamlar bilan tirband bo'lib, tashqariga tez chiqishni qiyinlashtiradi. Binoni zudlik bilan tark etish birinchi qavat derazalari orqali ham amalga oshiriladi.
2. Uyingizda xavfsiz joylarni oldindan belgilab qo'ying, u - xonaning asosiy devorlari orasidagi burchagi, ichki eshiklar o'rni, stol, karavot, stanoklar osti bo'lishi mumkin. yer qimirlaganda uyning eng xavfli joylari – ichki va tashqi deraza ostilari, devorlarning oyna bilan qoplangan qismlari, ayniqsa oxirgi qavatlardagi burchakda joylashgan xonalar, lift va zinapoya maydonchalari bo'lishi mumkinligini hisobga olish kerak.
3. Oila a'zolaringiz va bolalarga xavfsiz joyni egallashni o'rgatish zarur.
4. Oila a'zolaringiz va o'zingiz kvartirangizda, pod'yezdda, uyingizda gaz elektr, suvni o'chirish yo'llarini bilishingiz lozim.
5. Qariya, nogiron va bolalar xavfsilagini ta'minlash yo'lini oldindan o'ylab qo'ying.
6. Xonalardagi shkaf, kitob javonlarni devorlarga mahkamlab qo'ying. Uy jihozlarini uxlaydigan o'rirlarga yiqilmaydigan holatda, eshik va chiqish yo'llarini to'sib qo'ymaydigan qilib joylashtirish kerak.
7. Javonlar, shkaflar ustidagi og'ir buyumlar qattiq mahkamlab qo'yilishi yoki odam ustiga tushib ketishi mumkin bo'lgan buyumlar pastga yoki ishonchli joyga joylashtirilishi shart.
8. Javonlarni dam olish o'rinalidan, xonaga kirish eshididan, rakkovina va unitazlardan uzoqroq joyga o'rnating.
9. Uyga kirish yo'lini, yo'laklarni va zinapoyalarni buyumlar bilan to'sib qo'ymang.
10. Tez alanganuvchi va o'yuvchi suyuqliklar solingan idishlarni yer qimirlab bino silkinganda tushib ketib, portlab yoki yonib ketmaydigan xavfsiz joyda saqlang.
11. Jarohatlanganda, umuman xar qanday xavf bo'lganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish choralarini o'rganing. Doimo uyingizda dori-darmonlar, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish qutichasini saqlang.
12. Uyingiz holatini tekshirib chiqing, uni mustahkamlash yo'llarini aniqlang.
13. Uyingiz yoki ish joyingiz qishloqdagi aholi yashayotgan joylarda joylashgan bo'lsa, xavfli jarayonlar, ya'ni sel kelishi, ko'chki xavfi bo'lgan tog' xududida, suv bosishi mumkin bo'lgan xududlarda ekanligini aniqlab, oila a'zolari va qo'shnilar bilan birgalikda xavfsiz joyga chiqish

INTERNATIONAL CONFERENCE PEDAGOGICAL REFORMS AND THEIR SOLUTIONS

VOLUME 2, ISSUE 1, 2024

yo‘llarini belgilab qo‘ying. Chunki yer silkinishi natijasida, yer ko‘chkisi, o‘pirilishi, siljishi, tosh ko‘chkisi yerning yorilishi, tuproq qatlamlarining cho‘kishi, tuproqning siqilib, balchiqqa aylanish hollari yuz berishi mumkin. Kuchli yer silkinishi vaqtida Zilzila ro‘y berganda, yerning yuza qismi uncha uzoq bo‘limgan vaqt tebranib turadi. yer silkinishi davri – silkinish yer qatlamining yuzasida va yaqin masofada bo‘lsa, bir necha soniya, chuqurroq va olisda bo‘lsa, 2-3 daqiqagacha davom yetishi mumkin, bu tebranishlar insonga noqulaylik tug‘dirib, sarosimaga tushiradi. Lekin yer silkinishing to‘xtashini kutishdan boshqa chora yo‘q. SHuning uchun vahimaga tushmaslikka harakat qiling, osoyishtalik va xotirjamlikni saqlash juda muhim. yer qimirlayotganda xotirjamlik va aql bilan ish ko‘rsangiz talofatsiz chiqishingizga ko‘proq imkoniyat bo‘ladi. Bundan tashqari atrofingizdagi odamlar sizdan o‘rnak olishadi va bu ular uchun nihoyatda foydali.

Xonaning ichida

1. Agar siz yer yoki binoning silkinishini sezsangiz, darhol xavfdan qutulishga harakat qiling, yeng katta xavfni yuqorida tushadigan jismlar yaratishi mumkinligiga ahamiyat bering.
2. Agar siz ko‘p qavatli uyning birinchi qavatida xom g‘ishtli, pishgan g‘ishtli yoki paxsa devorli shaxsiy uylarda yashasangiz, zilzila boshlanishi bilan 15-20 soniya ichida darhol uyning ichidan tashqariga chiqib keting va elektir simlari, gaz quvurlari va baland imoratlar tagidan uzoqroqqa, ochiq joyga o‘ting.
3. Agar xonaning ichida qolsangiz, oldindan belgilab olingen xavfsiz joyga turib oling. Mabodo yuqorida suvoq parchalari, yoritgich asboblari, oyna siniqlari tushadigan bo‘lsa, stol yoki karavotlar tagiga berkinib oling. Maktab o‘quvchilari partalarining tagiga kirib, boshlari va yuzlarini qo‘llari bilan berkitib olishlari zarur.
4. Agar siz ko‘p qavatli uylar imoratlarning birinchi qavatidan yuqorida bo‘lsangiz, hech qachon lift yoki zinapoyalarga qarab yugurmang, chunki ko‘p hollarda yer qimirlash davrida zinalar birinchi navbatda qulaydi. Bunday hollarda uyning eshigini ohib, uning o‘rniga turing. Eshik kesakisi qotib qolsa, xavotir bo‘lmang, bu hol imorat devorlarining og‘ishidan bo‘ladi.
5. Har qanday binoning oynaband devorlaridan uzoqroqda, asosiy devori yonida turishga harakat qiling. Oyna to‘silalaridan ehtiyyot bo‘ling.
6. Ikkinci va undan yuqori qavatlarda bo‘lsangiz, zinhor derazadan pastga sakramang, chunki binoga zarar yetmasa ham, siz jarohatlanishingiz mumkin.
7. Sakrashga majbur bo‘lgan hollarda zinhor yopiq deraza oynasiga qarab sakramang, oynani taburetka yoki yelkangiz bilan sindirib, keyin sakrang.
8. Odamlar bilan gavjum joylarda (magazin, kinoteatr, muktab, oliygoh, vokzal) sarosimaga tushmang, binoning asosiy devorlariga, ustunlarga yaqinroq osilib turgan buyumlardan, qandil, konditsioner, reklama taxtalaridan uzoqroq turish kerak.
9. O‘zingizni xotirjam tuting, atrofingizdagilarni sarosimaga tushiradigan harakatlar qilmang, eshik va yo‘lklarda tirbandlikka yo‘l qo‘ymang.
10. Qishloq joylarida yer silkinishi oqibatida yer ko‘chkisi ro‘y berishi, sel kelishi, tog‘ toshlari tushishi mumkin. SHuning uchun tepaliklar ustiga yoki suv bosmaydigan, yuqoriroq joyga chiqib olishga yoki tik tog‘ yonbag‘irlari ostidan uzoqroq joylarga o‘tishga harakat qiling.

Ko‘chada

1. Ko‘p qavatli bino ostida turgan bo‘lsangiz, ochiq joyga chiqishga harakat qiling, chunki bino silkinishi natijasida siniq parchalari ustingizga tushishi mumkin. Elektr simlari tagida ham turmang, uzulib ketishi mumkin. Uzulib ketgan simlardan ehtiyyot bo‘ling.
2. Bino bo‘ylab uning tagida yugurmang, binoga kirmang, yuqorida tushishi mumkin bo‘lgan bo‘laklar hayotingiz uchun xavfli.
3. yer silkinayotgan vaqtida avtomobilda ketayotgan bo‘lsangiz, yuqori qavatli binolar, elektr simi, tik yonbag‘irlar, ko‘priklar, avtomobilarga yonilg‘i quyish shahobchasi, daryo o‘zanidan uzoqroq joylarga borib mashinani asta to‘xtating.

Zilziladan keyingi harakatlar

INTERNATIONAL CONFERENCE PEDAGOGICAL REFORMS AND THEIR SOLUTIONS

VOLUME 2, ISSUE 1, 2024

Yer qimrlashi to‘xtaganidan keyin binolarning holatini, jabrlangan odamlarni kuzatishingiz mumkin. Bunday hollarda xotirjamlik bilan, darhol shikastlangan, jarohatlanganlarga yordam ko‘rsatishni boshlang.

1. Yordamga muhtoj odamlarga birinchi tibbiy yordam ko‘rsating. Jarohat olganlarni sovuq qotmasligi uchun ko‘rpa bilan o‘rang va shifoxonaga yuboring.
2. Kasallar, bolalar va qariyalar xavfsizligini ta‘minlang, ruhiy dalda bering.
3. Yengil buyumlar ostida qolganlarga yordam bering. Ehtiyyot bo‘ling, qo‘sishimcha tibbiy yoki boshqa yordamga zarurat bo‘lsa, yordam kelguncha kuting.
9. Xavfli yengil alanga oluvchi suyuqliklar to‘kilgan bo‘lsa (benzin, kimyoviy moddalar va boshqalar), tezda bartaraf qiling va bu haqida boshqalarga xabar bering.
10. Vayron bo‘lgan binolar yoniga bormang, ularning ichiga kirmang. Agar sizning yordamingiz kerak bo‘lmasa, yer qimirlagan va vayron bo‘lgan joyga kirmang.
11. Yerto‘la eshiklarini ochishda ehtiyyot bo‘ling, chunki ustingizga suvoq parchalari, ustunlar yoki og‘ir jismlar tushishi mumkin.
12. Telefonni keraksiz axborotlar uchun band qilib turmang, chunki telefon yordamga chaqirish, muhim hodisalar, yaradorlar va jinoyatchilar haqida axborot berish uchun kerak bo‘ladi. YOdingizda bo‘lsin, telefon tarmog‘ining band bo‘lishi qutqaruv xizmati ishlari samaradorligini kamaytirishi mumkin.
13. Yer qimirlashining takrorlanishi mumkinligi haqidagi o‘z fikringizni birovlarga tarqatmang yoki mish-mishlarga ishonib gap tarqatmang. Rasman e‘lon qilingan axborotlardan foydalaning. Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash mumkinki, aholini zilzila bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilishga tayyorlashda yuqorida ko‘rsatilgan tavsiyalarga amal qilinsa, ularning amaliy tayyorgarlik darajasini keskin oshirilishiga, shuningdek zilzila va uning ikkilamchi omillari natijasida yuzaga keladigan talofat va yo‘qotishlarni kamaytirishga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullabekov Q.N. Il‘yasova. Z.F. // Favqulodda vaziyatlar tarixidan: Zilzila. // - T.: FMI kichik bosmaxonasi, 2016. – 164 b.
2. Abidova F.A. // Aholini favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilishga tayyorlash tizimini samaradorligini oshirish yo‘llari. // "Zilzilalarni monitoring qilishning istiqbollari va rivojlantirish asoslari" mavzusida ilmiy-amaliy seminar to‘plami.-Toshkent, –2018. -89 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 9 sentyabrdagi —Aholini Favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risidaligiga 754-sonli qarori.
4. Xaydarov R.X., Kurbanov B.Y. SHirinov K.J. Fuqarolar uchun zilzila vaqtida tegishli harakat va tadbirlarni amalga oshirish (uslubiy qo‘llanma)